

“GLOBAL JANUB” FENOMENINI TAHLIL ETISH BO‘YICHA NAZARIY YONDASHUVLARI

Muhayyo Xabibullayeva¹

¹ O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Muxtor Nazirov¹

¹ O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

dotsenti, PhD

MAQOLA MALUMOTI:

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.12.2024

Revised: 29.12.2024

Accepted: 30.12.2024

KALIT SO‘ZLAR:

Global Janub, Global Shimol, sotsiologiya, iqtisodiy modellar, postkolloniyal davlatlar, konsepsiyalar, global integratsiya.

Mazkur maqolada “Global Janub” atamasining ilmiy jamiyatda ommalashuvi haqidagi turli fikrlar haqida so‘z boradi. “Global Janub” atamasi haqida ikki yirik ilmiy jamiyat - rus va ingliz tilidagi manbalardagi turlicha yondashuv va nazariyalar tahlil qilingan. Ushbu maqolada global Janub davlatlari haqidagi qarama-qarshi fikrlar borasida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

KIRISH. “Global Janub” atamasi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda ishlatila boshlandi. Bu atamaning kelib chiqish tarixi o‘tgan asrlarning 50-yillariga borib taqaladi. 1960-yillarga kelib atama ancha rivojlana boshladi. Bu atama 2000-yillarga kelib barcha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llandi. Bugungi kunda “Global Janub” atamasi dunyoda rivojlanayotgan yoki rivojlanishdan ortda qolgan davlatlarni tavsiflanmoqda. Natijada bunga qarama-qarshi “Global Shimol” atamasi ham ilmiy muomalaga kirdi va u bilan dunyodagi rivojlangan G‘arb davlatlarini ifodalay boshlandi.

Umumqabul qilingan nazariyalarga ko‘ra, global Janubga Janubiy Yarim Sharda joylashgan davlatlar kiradi. Bu davlatlarning aksariyatida milliy iqtisodi, yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlarining pastligi, davlatchiligi ko‘p jihatdan kollonial o‘tmish ta’sirida qolib ketganligi bilan xarakterlanadi. Ammo endilikda mazkur makonda joylashgan hamma

davlatlar bunday ta'rifga mos kelmaydi, ya'ni kambag'al yoki rivojlanayotgan tasnifda emas. Shu bois u ba'zi bir ilmiy jamiyatlar tomonidan tanqidga uchragan. Global Janub davlatlariga yondashuvlar manbalarda turlicha talqinda shakllandi.

MUHOKAMA

Rus ilmiy manbalarida atamani xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi va boshqa ijtimoiy fanlar doirasidagi kontseptual tushuncha sifatida o'rganishgan, uning tahlili esa asosan rivojlanayotgan davlatlar bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar atrofida bo'lgan. Sotsiolog olim I.Kislenko "Global Janub va Shimolni tushunish" nomli tadqiqotida "Global Janub"ning aslida geografik emas, balki epistemologik tushuncha ekanini ta'kidlaydi. Bu atama sotsiologik nazariyalarni rivojlantirish borasida Janub mamlakatlar huquqini ifodalashi qayd etiladi. Kislenko Janubning G'arb davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik va iqtisodiy modellarga qarshi turishini va ularning o'ziga xos rivojlanish jarayonlarini aks ettirishini yozadi.[1]

Yana bir rus sotsiologi A.Zdravomyslov postkolonial mamlakatlarning o'ziga xos sotsiologik nazariyalarni rivojlantirish harakatlarini tahlil qiladi va bu jarayonlarni "Global Janub" konsepsiyasiga bog'laydi. U ham rivojlanayotgan mamlakatlar "Global Shimol"ning ilmiy dominantligi ostida qolganini va bu nazariyalar G'arbnig universalizmiga qarshi qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi.

Zdravomyslov global sotsiologiyaning ko'p qirrali va muvozanatli bo'lishi Janub davlatlaridagi ijtimoiy jarayonlarni xolis, mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tahlil qilinishiga bog'liq, deb hisoblaydi. [2]

Rus sotsiologi V.Yadov milliy sotsiologiyaga alohida e'tibor qaratgan. U "Global Janub" tushunchasi orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini sotsiologiyada qanday aks etishi kerakligini o'rganadi. [3]

Rossiyalik siyosatshunos P.Fomichev "Global Janub" tushunchasini global sotsiologiya ichida alohida yo'nalish sifatida ko'radi va rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xos sotsiologik yondashuvlarini shakllantirishda muhim rol o'ynayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Global Janub" mamlakatlari o'zining turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekstlariga mos keladigan nazariya va metodlarni ishlab chiqish orqali, global sotsiologiyaning bir qismi sifatida o'z o'rnini topmoqda. Bu atama, uningcha, rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim epistemologik vositaga aylangan.[4]

Umuman olganda, rus olimlari, xususan I.Kislenko, A.Zdravomyslov va V.Yadovning fikriga ko'ra, bu tushuncha dastlab "Uchinchi dunyo" atamasi o'rnini egallagan. Hozirda esa atama global sotsiologiya doirasida rivojlanayotgan mamlakatlar (Janub) va rivojlangan

mamlakatlar (Shimol) o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni tushuntirish uchun qo'llaniladi.

Rus olimlari "Global Janub" atamasining ma'nosi faqat geografik tushuncha emasligini ta'kidlaydilar. Ular bu tushunchani epistemologik va mafkuraviy jihatdan tahlil qilishadi. Bu atama Shimol va Janub o'rtasidagi ilmiy, iqtisodiy va madaniy dominatsiya bilan bog'liq bo'lgan turli ijtimoiy munozaralarda ishlatiladi.

Rossiyalik sotsiologlar Janub davlatlarining ilmiy va sotsiologik nazariyalar sohasidagi huquqlarini himoya qilish zarurligini tan oladi. Ularning fikricha, global sotsiologiyada Shimolning ilmiy ustunligi mavjud va Janub davlatlari o'z ovozi eshittirish va ilmiy bilimlarni ishlab chiqishda ko'proq imkoniyatga ega bo'lishi kerak. A.Zdravomyslov va P.Fomichev G'arb sotsiologiyasining global nazariyalardagi monopoliyasini tanqid qilib, g'arbiy modellarga qarshi chiqayotgan Janub mamlakatlari ilm-fanning o'ziga xosligini e'tirof etishadi. Ular Janub mamlakatlarining o'z nazariya va tushunchalarini rivojlantirishda muhim ekanini ta'kidlaydilar[4].

Global Janub davlatlari ingliz manbalarida keng miqyosda tahlil qilingan va ularga turli nuqtai nazarlardan yondashilgan. Global Janub atamasi rivojlanayotgan mamlakatlar, ularning tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini anglash uchun keng qo'llaniladi.

Amerikalik olim I.Wallerstein "Dunyo-sistemi nazariyasi" asarida [5] "Janub" va "Shimol" o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni tahlil qilgan. U rivojlanayotgan davlatlarni "periferiya" deb atab, boy "yadro" mamlakatlari ularni ekspluatatsiya qilish orqali o'z taraqqiyotini saqlab qolayotganini ta'kidlaydi. Bu nazariya global iqtisodiy tizimni asosan Shimol-Janub bo'yicha ajratib, "Global Janub" mamlakatlarini rivojlanishning murakkab jarayonida ekspluatatsiya qilingan davlatlar sifatida ko'rsatadi.

Britaniyalik madaniyatshunos S.Hall postkolonial nazariyasida "Global Janub" atamasini G'arb hukmronligiga qarshi chiqqan va o'z madaniy identifikatsiyasini saqlab qolishga intilgan davlatlar guruhiga nisbatan ishlatgan. U "Global Janub" tushunchasini G'arbnining madaniy va iqtisodiy dominatsiyasiga qarshilik sifatida ko'radi. S.Hallning ishlarida postkolonial davlatlarning madaniy va ijtimoiy ozodlik uchun kurashi muhim o'rin tutadi.

Hindistonlik olim G.Spivak postkolonial va feminist nazariyotchi sifatida "Global Janub" konsepsiyasini rivojlantirgan. "Subaltern gapira oladimi?" nomli maqolasida[6] u postkolonial dunyo va rivojlanayotgan mamlakatlarda "Global Janub" aholisining ovozi eshitilmasligi masalasini ko'targan. U G'arb ilmiy hamjamiyatining ushbu masalaga bo'lgan yondashuvini tanqid qilib, Janubdagi jamiyatlarning o'ziga xos bilimlarini qadrlashni talab qiladi.

Portugaliyalik sotsiolog olim B.Santos “Janub epistemologiyasi”ni ilgari suradi[7]. U “Global Janub”ni postkolonial davlatlarning bilish jarayonlarini tushuntirish uchun qoʻllaydi. Santosning fikricha, “Global Janub” nafaqat rivojlanmagan mamlakatlarni, balki Gʻarbning ilmiy va bilim tizimlariga qarshi turuvchi muqobil epistemologiyalarni ham anglatadi. U global adolat va ijtimoiy tenglik uchun kurashayotgan “Global Janub”ni epistemologik jihatdan boy hudud sifatida tasvirlaydi.

Hindistonlik tarixchi D.Chakrabarty “Time and the Other” asarida [8] rivojlanayotgan mamlakatlarni gʻarbiy vaqt va taraqqiyot paradigmasidan tashqarida turuvchi jamiyatlar sifatida koʻradi. Chakrabarty “Global Janub”ni vaqt va tarix tushunchalariga boshqa nazardan qaraydigan hududlar deb talqin qiladi, bu bilan esa Gʻarbning tarixiy rivojlanish nazariyasiga qarshi chiqadi.

NATIJALAR

Ilmiy hamjamiyatning “Global Janub” borasidagi qarama-qarshi nazariyalari dunyo iqtisodiy tizimidagi oʻzaro aloqadorlik va ijtimoiy oʻzgarishlar kontekstida bir necha asosiy nuqtalarni oʻz ichiga oladi.

Birinchidan, global Janub davlatlari rivojlanish jarayonida ekspluatatsiyaga uchragan va sobiq metropoliya mamlakatlarining nazoratida boʻlgan. Ammo, baʼzi mualliflar global Janub mamlakatlari oʻz resurslarini boshqarishi va rivojlantirishi mumkinligini taʼkidlaydi. Buning uchun ular oʻz-oʻzini rivojlantirish va milliy iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishi zarurligiga eʼtibor qaratadi.

Ikkinchidan, global Janub mamlakatlari sobiq markaz davlatlarga iqtisodiy bogʻliqlikdan manfaatdor emas, chunki bu ularning oʻz salohiyatiga tayangan holda mustaqil rivojlanish imkoniyatini cheklaydi, deb hisoblanadi. Bunga qarshi fikr shundan iboratki, Janub davlatlari uchun global iqtisodiyotga integratsiya ular uchun iqtisodiy oʻsish va taraqqiyot imkoniyatlarini yaratishi bilan foydali boʻlishi ham mumkin.

Uchinchidan, olimlarning bir guruhi rivojlanayotgan davlatlar muammolarini oʻrganib, ular, asosan, global tizimning ekspluatatsion tabiatidan kelib chiqadi degan xulosaga keladi. Ammo boshqa olimlar ijtimoiy va siyosiy muammolarni mahalliy kontekstda koʻrib chiqadi va Janub davlatlarining oʻzaro aloqalarini, madaniyat va tarixiy omillarni hisobga olgan holda tahlil qiladi.

Bunday qarashlar oʻz-oʻzidan shakllanmagan. Buning uchun bir guruh olimlar tomonidan sabablar keltiriladi.

Ayrim olimlar fikricha, Janub mamlakatlari hanuzgacha sobiq metropoliya davlatlariga qaramligi va ekspluatatsiya qilinishi holatlari uchraydi. Neomarksizm taʼlimoti koʻra, bu

iqtisodiy notenglik demakdir, va yaqin istiqbolda global qutblashishga olib kelishi mumkin. I.Wallerstein, A.Frank va R.Amin kabi olimlar tarixiy kontekstdagi ekspluatatsiya jarayonlarini tahlil qilgan holda bu nazariyani qo‘llab-quvvatlagan[5].

Ikkinchi guruh olimlar Janub mamlakatlari global iqtisodiyotga integratsiyalashishi orqali o‘sishga erishishi mumkin, deb hisoblashadi. J.Stiglitz va D.Rodri[7] kabi iqtisodchi olimlar xalqaro integratsiyaning foyda va xavflarini o‘rganib, bu o‘zaro bog‘liqlikning ortishi rivojlanishga olib keladi, deb hisoblaydi.

Uchinchi guruh olimlar – hindistonlik iqtisodchi A.Sen va amerikalik siyosatshunos S.Sassen rivojlanish jarayonlarida madaniyat va ijtimoiy tuzilmalarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari ular global Janub mamlakatlarining o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy jihatlarini, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilavchi asosiy omil, deb hisoblashadi[11].

To‘rtinchi guruh tadqiqodchilar – hindistonlik siyosatshunos R.Mukherjee va Kolumbia universiteti antropologi A.Escobar[7] muqobil rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqqanlar. Unga ko‘ra, global Janub mamlakatlari, o‘z tarixiy va madaniy kontekstlariga mos keladigan muqobil rivojlanish modellarini ishlab chiqishi kerak. Chunki, ular ko‘p sonli va faol iqtisodiy rivojlanayotgan mintaqalarda joylashgan.

XULOSA

Yuqorida zikr qilingan manbalar tahlilidan xosil bo‘ladigan umumiy xulosalar bir qator nazariyalarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, Janub mamlakatlari o‘z tarixida mustamlaka bo‘lgani ularning yangi davlatchiligi asoslariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan, bu ularni sobiq metropoliya ekspluatatsiyasi va muntazam nazoratidan chiqishga undaydi. Umumiy madaniy va tarixiy omillarni hisobga olgan holda, global Janub davlatlarini o‘z-o‘zini rivojlantirish manfaatlari birlashtiradi. Bunga sabab, neomarksizm ta’limotiga ko‘ra, Janub mamlakatlaridagi muammolar, asosan, global tizimning ekspluatatsion tabiatidan kelib chiqadi. Bunga ulkan resurs va ishlab chiqarish salohiyatlarini birlashtirishni nazarda tutuvchi “Janub - Janub” muqobil rivojlanish modeli yorqin misol bo‘lishi mumkin. Ushbu nazariyalar global iqtisodiy tizim va uning ta’sirini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchidan, markaz – periferiya (chekka hudud) nazariyasiga ko‘ra, kollektiv G‘arb davlatlari global Shimol timsolida Janub mamlakatlarini noteng iqtisodiy sharoitga majburlashi tarixiy kontekstga ega va dunyoning qutblashishiga olib keladi. Shunga qaramay, global iqtisodiyotga integratsiyalashuv orqali iqtisodiy o‘sish va farovonlik imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Uchinchidan, rus va ingliz ilmiy manbalarining tahlili “Global Janub” fenomeni xalqaro munosabatlar sotsiologiyasida hukmron tendensiyaga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Bu tahlillar orasida rus va yevropa olimlarining qarashlari bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, yevropa olimlari uchun global Janub atamasi rivojlanayotgan mamlakatlar, ularning tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini anglashda keng qoʻllaniladi. Ularning tahlillari asosan postkolonializm, rivojlanish iqtisodiyoti va madaniyat nazariyalari bilan bogʻliq. Rus olimlari Gʻarb hukmronligiga qarshi turishni va rivojlanayotgan davlatlar ovozini yanada baland jaranglashini ilgari suradi.

Yuqoridagi qarama-qarshi yondashuvlar global Janub mamlakatlarining roli va ahamiyatini tushunishda muhim hisoblanadi. Ular shakllanayotgan yangi xalqaro tartibot tizimida kechayotgan notenglik va rivojlanish jarayonlarining dexotomiyasi murakkabligini koʻrsatadi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Кисленко И.Ю. О роли понятий «глобальный Север — Юг» в глобальной социологии // Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология. 2020. Т. 13. Вып. 2. С. 116–128.
2. Здравомыслов А.Г. Национальные социологические школы в современном мире // Общественные науки и современность. 2007. № 5. С. 114–130.
3. Ядов В.А. Для чего нужна сегодня национальная русская социология? // Социологические исследования. 2008. № 4. С. 16–20.
4. Фомичев П.Н. Глобальная социология: формирование новой науки: анализ. обзор. М.: ИНИОН РАН, 2000.
5. Manuela Boatcă. Global inequalities avant la lettre: Immanuel Wallerstein's contribution. *Socio*, 15 | 2021, 71-91.
6. Gayatri Chakravorty Spivak. Can the Subaltern Speak?' in Cary Nelson and Lawrence Grossberg (eds) *Marxism and the Interpretation of Culture* London: Macmillan, 1988. <https://jan.ucc.nau.edu/~sj6/Spivak%20CanTheSubalternSpeak.pdf>
7. Boaventura de Sousa Santos. *Epistemologies of the South: Justice against Epistemicide*. Paradigm Publishers, 2014. 284 pages.
8. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/00699667211065081>
9. Arturo Escobar, Dianne Rocheleau. *Territories of Difference: Place, Movements, Life, Redes*. Duke University Press, 2008. 456 pages.

10. Nazirov, M. (2021). G'arb va musulmon olami dialektikasidagi zamonaviy tendensiyalar. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 328-334.

11. Xabibullayeva, M., & Nazirov, M. (2024). From the Third World to the Global South: concepts, essences and conceptual interpretations. *Modern Science and Research*, 3(1), 582-587.

12. Nazirov, M., & Abdusalomova, D. (2023). Theoretical Approaches to the Balance of the World Political System. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 583-586.

